

О‘ЗBEKISTONNING HOZIRGI DEMOGRAFIK HOLATIGA ILMIY TAVSIF

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti
g.i.k., dots.G.B.Utepova,
4-kurs talabasi Q.O.Óteev*

Kalit so‘zlar: aholi, aholi soni, doimiy aholi, geodemografik vaziyat, demografik potensial, tug‘ilish, o‘lim, tabiiy o‘sish, mehnat resurslari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi aholining hududiy joylashuvi, demografik holati, ya’ni aholi soni va dinamikasi, yosh-jins tarkibi, aholining tabiiy ko‘payish miqdori bo‘yicha yangi ma’lumotlar qiyosiy o‘rganildi.

Keywords: population, population size, permanent population, geodemographic situation, demographic potential, birth rate, mortality rate, natural growth, labor resources.

Annotation: This article comparatively examines new data on the territorial distribution of the population in the Republic of Uzbekistan, its demographic situation, population size and dynamics, age and gender composition, and natural population growth.

Ключевые слова: население, численность населения, постоянное население, геодемографическая ситуация, демографический потенциал, рождаемость, смертность, естественный прирост, трудовые ресурсы.

Аннотация: В данной статье были сравнительно изучены новые данные о территориальном распределении населения, демографической ситуации, то есть численности и динамике населения, половозрастном составе и естественном приросте населения в Республике Узбекистан.

Demografik ma’lumotlar - aholining soni, tarkibi, joylashuvi va uning takror barpo bo‘lishiga doir statistik ma’lumotlardan foydalanib, to‘plangan, qayta ishlangan va tahlil qilingan materiallardan iborat. Bu ma’lumotlarning asosini aholi soni tashkil

etadi. Aholini - ro'yxatga olish jarayonida muayyan aholi punkti yoki mintaqada doimiy yashayotgan aholi hamda ayrim sabablarga ko'ra vaqtincha yashamaydigan aholini ham qamrab oladi.

Tug'ilish aholi takror barpo bo'lishining demografik asosi bo'lib, unga barcha ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillar ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda 1950-yillarning boshida tug'ilish darajasi har ming kishiga 40‰ (promille) dan to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hozirgi kunda deyarli ikki baravarga (23,5‰) qisqargan. So'nggi yillarda ham O'zbekiston Respublikasining demografik salohiyati tabiiy ko'payish hisobiga saqlanib qolayotganligi bilan tavsiflanadi.¹ O'zbekiston Respublikasiga demografik jihatdan baho beradigan bo'lsak, 2001-2007-yillarda mintaq aholisi yiliga 500 ming kishiga ko'paydi, 2008-2013-yillarda esa yiliga 600 mingga oshgan, 2014-2018-yillar oralig'ida mamlakat aholisi yiliga 700 ming kishiga o'sdi. 2019-yildan keyin esa aholi o'sishi yanada tezlashdi. 2019-2021 yillarda aholi soni yiliga 800 mingdan ziyodga ko'paydi.

Mamlakatning hozirgi demografik holati aholi dinamikasida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Aholining yosh-jins tarkibidagi tafovutlar, migratsion (mexanik) harakatdagi faollik, mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanish holatlarida ana shu demografik jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2024 yil (1.07.) holatiga ko'ra mamlakatdagi doimiy aholi soni 36.963.300 kishini tashkil etdi, shundan 18.809 ming nafari erkaklar (50,4%), 18.545 ming nafari xotin-qizlardan (49,6%) iborat. Shu yildagi shahar va qishloq joylarida yashovchi odamlarga qiyosiy tavsif beradigan bo'lsak, umumiy aholining 51% (18.855 ming) shahar aholisi hisobiga, qishloq joylarda esa 49% (18.108 ming) aholining tashkil etadi.

Doimiy aholi soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 foizga o'sib, 2023 yilning har bir oyida o'rtacha 63,9 ming kishiga oshgan. 2024 yil boshidan hozirgi kungacha 574,8 ming kishiga ko'payib, har kuni o'rtacha 2,1 ming kishiga

¹Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Toshkent, 2011

ko'paymoqda. Doimiy aholi sonini hududlar bo'yicha taqqoslaganda eng ko'p aholi Samarqand viloyatiga to'g'ri kelib, 4.159 ming (11,4%) kishi, Farg'ona viloyatiga 4.014 ming (11,0%) kishi, Qashqadaryo viloyatida esa 3.515 ming (9,7%) kishini, eng kam aholi esa Sirdaryo viloyatida 904,9 ming (2,5%) kishini tashkil etgan.

Aholining yosh tarkibi - demografik jarayonlarni o'rganishda dastlabki qadamlardan biridir. Ayniqsa, aholining yosh tarkibi haqidagi ma'lumotlar demografik jarayonlarni tadqiq etish uchun muhim bo'lib, demografik jarayonlar insonning yosh xususiyatiga ko'ra amalga oshadi.² O'zbekiston Respublikasi misolida: mehnat yoshgacha bo'lganlar (0-15 yosh), mehnatga layoqatli yoshdagilar (ya'ni mehnat resurslari) (16-54 yoshli ayollar; 16-59 yosh erkaklar uchun) va mehnatga layoqatli yoshdan keyingi (55 - 60 yosh) aholi guruhiga bo'linadi. 2024 yil (1.07) holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining 31,9%i mehnatga layoqatli yoshdagilar, 56,7%i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 11,4%i mehnatga layoqatli yoshdan o'tganlar ulushiga to'g'ri keladi.

Doimiy aholi tarkibini jins va yosh guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda 2024 yil (01.01) holatiga ko'ra erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 2160,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, eng kam aholi sonida erkaklar ulushiga to'g'ri kelib 60-64 yosh oralig'idagilar 641,2 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, xotin-qizlar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qiz bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 2001,8 ming nafar qiz bolalarni tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayol-qizlar soni 60-64 yoshdagilar ulushiga to'g'ri kelib, ya'ni 715,3 ming kishini tashkil etgan. Tahlil qilinayotgan davrda mamlakat aholisining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,3 yoshga yetdi. Bu ko'rsatkich erkaklar uchun 72,1 yosh, ayollar uchun esa 76,6 yoshga to'g'ri keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti demograflari tomonidan keksayish jarayonini baholash maqsadida uch bosqichli mezon ishlab chiqilgan. Unda; 65 yoshdan yuqori

² Berdiqulova M.T. Aholini ro'yxatga olishda geografik va demografik ma'lumotlarning o'rni. Экономика и социум. Москва. №3(94)-1 2022. www.iupr.ru 29-32 b

aholining ulushi 4,0% dan kam bo'lsa, demografik yosh, 4,0-7,0% bo'lsa - keksayish ostonasida, 7,0% dan yuqori bo'lsa demografik qariyalar hisoblanadi. 2024 yil (01.01) holatiga O'zbekiston Respublikasida 65 yoshdan yuqori bo'lgan aholi guruhining ulushi 5,4%ni tashkil etib, bu ko'rsatkich xalqaro mezonlar bo'yicha "demografik qarish bo'sag'asida"gi mamlakatlar qatoriga kiradi.

Demografiya fanida aholining hududiy joylashuvi va zichligini tahlil qilish muhimdir. Aholining hududiy joylashuvi - yer yuzining insonlar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lgan juda uzoq tarixiy jarayonning natijasi bo'lib, aholi zichligi esa tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillar ta'sirida yuzaga keladi. 2024-yil (01.07) holatiga ko'ra respublika bo'yicha 1km² maydonga 81,0 kishidan to'g'ri kelgan. Hududlar bo'yicha nisbatan eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyatiga to'g'ri kelib - 780 kishini, Farg'ona viloyatida 594 kishini, Qoraqalpog'iston Respublikasida 12 kishini, eng past ko'rsatkich esa Navoiy viloyatiga to'g'ri kelib 1km² maydonga 9,6 kishini tashkil etadi..

Inson umrining davomiyligi asosiy ikki omilga bog'liq bo'ladi. O'lim inson hayotining yakuni bo'lib, u endogen va ekzogen omillar ta'sirida yuzaga keladi. Endogen omil - inson organizmi va uning biologik holatiga bog'liq holda nasldan-naslga o'tadigan tug'ma irsiy kasalliklar hisoblanadi. Ekzogen omil esa, tashqi muhit ta'siri natijasida yuzaga kelib, masalan; tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, epidemiyalar va hokazolar misol bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasida 2024-yil davomida vafot etganlar soni 172075 kishini (har ming kishiga 4,7%), - erkaklar soni 95013 nafar, ayollar soni 77062 nafarni tashkil etdi. Vafot etganlar soni shahar hududlarida 92,0 ming kishini, qishloq joylarda 80,1 ming kishiga teng bo'ldi. 2024-yil davomida vafot etgan insonlarni yosh guruhlariga bo'lib o'rganilganda;

- 20 yoshgacha bo'lgan yoshda vafot etganlar ulushi 20,0%;
- 20-59 yosh oralig'ida vafot etganlar ulushi 24,6%;
- 60 va undan yuqori yoshda vafot etganlar ulushi 55,4% ni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda, demografik jarayonlarning dastlabki qadami hisoblangan tug'ilish, ya'ni aholi sonining ortishi O'zbekiston Respublikasida kelgusida ham

mehnat resurslariga ehtiyojni keltirib chiqarmaydi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini mehnat resurslari bilan ta'minlovchi alohida mexanizm - bu mehnat bozori hisoblanib, O'zbekiston mehnat bozorini qiyosiy tahlil qilganimizda aholi tarkibida "yosh" qatlaminig ustunligi albatta ijobiy demografik fikrlarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiqulova M.T. Aholini ro'yxatga olishda geografik va demografik ma'lumotlarning o'rni. Экономика и социум. Москва. №3(94)-1 2022. www.iupr.ru 29-32 b.
2. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Toshkent, 2011.
3. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси. Дарслик. –Тошкент, 2014.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari.